



SODDA RAVISH YASALISHINING SERUNUM DERIVATSION QOLIPLARI

Xursanova Durdona Juma qizi

Qarshi davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Bu maqolada derivatsiya tushunchasi haqida, sodda ravish yasallishining serunum derivatsion qoliplari batafsil yoriladi.

Kalit soʻzlar: soʻz yasallishi derivatsiya, ravish soʻz turkumi, morfologik usul.

Oʻzbek tilshunosligida derivatsiya masalasi til taraqqiyotining boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. Derivatsiya nafaqat soʻz yasash hodisasini, balki kengroq tushunchalarni ham oʻz ichiga oladi. Bu jarayon shakliy va maʼnoviy oʻzgarishlarni ham qamrab oladi. Derivatsiya statik emas, dinamik tizim hisoblanadi. U doimo oʻzgarishda boʻlgan til birliklarini yoki maʼlum davrda faol hisoblangan birliklarni ham tadqiq etadi. Derivatsiya soʻzi lotincha soʻzdan olingan boʻlib, “ajralish” yoki “kelib chiqish” maʼnolarini anglatadi. Bu jarayon natijasida tilning lugʻat boyligi doimiy ravishda kengayib boradi. Derivatsiya jarayoni til birliklarining paradigmatic va sintagmatic munosatlari bilan birgalikda yuzaga keladi. Bu esa derivatsiyani bir butun holda oʻrganish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Til tuzilmasining soʻz yasallishi darajasi niyohatda oʻzgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Bu holat til evolutsiyasi jarayonida yuz beradigan diaxron oʻzgarishlarda, shuningdek, derivatsion tizimdagi grammatik kategoriyalar tarkibining kengayishi va ularning ifodalanish shakllarida namoyon boʻladi. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalovalarning "Hozirgi oʻzbek tili" oʻquv qoʻllanmasida derivatsiya tilshunoslikning alohida boʻlimi sifatida keltiriladi. Derivatsiyaning diaxron va sinxron turlari mavjud ekanligi, bu boʻlim tilshunoslikning soʻz yasash, soʻz hosil boʻlish usullari kabi masalalar bilan shugʻullanishi taʼkidlanadi.

Derivatsiya soʻz yasallishini ham ([ishchi], [ishla], [kitobxon]), ichki imkoniyat asosida yangi leksema paydo boʻlishini ham [kelishgan], [ixtisoslashuv], [oʻqigan], [birov] oʻrganadi.⁵⁸ Yuqoridagi fikrlarga koʻra derivatsiya oʻz ichiga koʻproq terminlarni sigʻdirishi mumkin ekan, demak, u

⁵⁸ R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.

Oʻquv qoʻllanma. -T., "Fan va texnologiya", 2009, 144-b.



soʻz yasallishidan ham kattaroq boʻlim ekan.

Derivatsiya oʻz ichida ikkiga boʻlinadi:

- 1) tarixiy – diaxron derivatsiya;
- 2) sinxron derivatsiya.

Sinxron derivatsiyada yasama soʻz bilan yasalma oʻrtasida aloqa mavjud boʻladi, yaʼni qolipning shakli va mazmuniy tomoni yasama soʻzda oʻz izini qoldirgan boʻladi. Masalan, [gulchi] yasama soʻzida [ot+chi = ot bilan shugʻullanuvchi shaxs oti] qolipidagi shakli va mazmuniy tomonning izlari yaqqol koʻrinib turibdi.

Tarixiy derivatsiyada esa shakl va maʼnoga xos qolip mavjud boʻlmaydi. Ular leksemalarga oʻxshash boʻladi. V.S.Raximovning “Leksik va semantik derivatsiya muammolari” monografiyasida derivatsiya termini E.Kurilovich tomonidan qoʻllangan leksik derivatsiya termini bilan maʼnodosh holda amalga oshiriladi. Buning oʻziga xos dalillarini oʻtgan asrning ikkinchi yarmidan keyin chop etilgan “Lingvistik terminlar izohli lugʻat” larida ushbu terminning “affikslar yordamida yangi soʻz yasallishi”, “affikslar va affikslar yordamisiz soʻz yasash” tarzida izohlanganligi misolida koʻrish mumkin.

Biz ilmiy manbalarda derivatsiyaning morfologik, semantik, sintaktik kabi turlari mavjud ekanligi koʻrishimiz mumkin. Oʻzbek tilida derivatsiyaning eng faol koʻrinishlaridan biri **morfologik derivatsiyadir**. Bu jarayon affikslar yordamida amalga oshadi. Affiksatsiya orqali hosil qilingan til birliklari til tizimida mustaqil semantik birlik sifatida faol qoʻllanadi, oʻzbek tilshunosligida yangi soʻz yasallishining bir necha usullari ajratilib, ulardan faqat ikkitasi: affiksatsiya (morfologik usul) va kompozitsiya (sintaktik usul) asosiy usullar sifatida eʼtirof etiladi. Toʻrt soʻz turkumi – feʼl, ot, sifat va ravishda ushbu usullar bilan yangi soʻz yasallishi maʼlum. Derivatsiya soʻz yasallishiga nisbatan kengroq tushuncha boʻlib, soʻz yasallishini ham, ichki mikoniyat asosida yangi leksema paydo boʻllishini ham oʻrganadi. Soʻz yasallishi – sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayon. U derivatsiyaning asosiy qismini tashkil etadi.

Oʻzbek tiliga oid soʻz yasallishiga doir ilmiy adabiyotlar, oʻquv qoʻllanmalarda soʻz turkumlarining barchasi affiks vositasida yasallish tizimiga ega ekanligi taʼkidlanadi. Bunda yasallish termini keng taʼnoda qoʻllanilib, yangi leksema yasallishini ham, grammatik shakl yasallishini ham nazarda tutadi. Biroq ravish, yuqorida aytib oʻtilganidek, morfologik oʻzgarmas soʻz boʻlib, grammatik shakl yasallishi – turlanish, taslanish tizimiga ega emasligi deyarli barcha manbalarda aytiladi. Professor A.Hojiyev soʻz yasallish hodisasini ham, asosan ot, sifat, feʼl soʻz turkumlarida yuz berishi, qolgan 3 ta turkum – son, olmosh, xususan, ravishda ham affiksatsiya usulida sodda soʻz yasallish hodisasining mavjud emasligini taʼkidlaydi. Bunga sabab sifatida esa son soʻz turkumidagi soʻz yasovchi deb hisoblanayotgan hodisa aslida shakl yasovchi



ekanligi, ya'ni *-tacha*, *-ta* qo'shimchasi orqali yasalgan so'zlar son turkumida yasaliş emas, balki sonning ma'lum grammatik ma'noli shakli ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Olmosh so'z turkumining esa boshqa so'zlar o'rnida qo'llanilib kelganligi uchun bu turkumning o'ziga xos so'z yasaliş tizimining mavjud emasligi ta'kidlangan.

Professor Azim Hojiyev o'zining "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalişining nazariy masalalari" monografiyasida ravish yasovchi qo'shimchalar sifatida qayd tilgan *-cha*, *-iga*, *-siga*, *-chasiga* kabi qo'shimchalar yuzasidan quyidagi fikrlarni bildiradi: "Bizningcha, *-cha* morfemasini nokategorial so'z shaklini yasovchilar qatorida, ya'ni tilshunoslikning morfologiya bo'limida o'rganish to'g'ri va maqsadga muvofiq bo'ladi. Ravish yasovchi deb qaralayotgan boshqa affikslarning ba'zilari, umuman, so'z yasovchi emas (masalan, *-dek* affiksi) yoki sanoqli so'zlar tarkibida uchraydi, demakki, so'z yasaliş sistemasini yoki shakl yasaliş sistemasini (morfologik sistemani) shakllantiruvchi birliklarni hosil qilmaydi (masalan, *kuniga*, *yoppasiga*, *yigitchasiga* so'zlari tarkibidagi *-iga*, *-siga*, *-chasiga* shular jumlasiga kiradi).⁵⁹

O'zbek tilida ravish yasovchi faol qo'shimchalar deb baholanuvchi *-cha*, *-larcha*, *-lab* kabi qo'shimchalarni Azim Hojiyev tarixiy yasaliş ekani, unga diaxron yondashish, hozirgi kunda esa o'z yasamalik qobiliyatini yo'qotganligini ta'kidlab o'tadi. So'z yasaliş sinxronik aspektga asoslanadi. Sinxroniyada til taraqqiyotining ma'lum bir davri nazarda tutiladi. Til hodisalarini tekshirishda sinxroniya (bir vaqtlilik) va diaxroniya (har vaqtlilik) o'zaro munosabatda, aloqada bo'ladi. Ular biri ikkinchisini tamoman rad etmaydi: sinxroniya til taraqqiyotidagi bir zveno xolos. Sinxron aspektidagi tahlilda ham diaxroniyaning elementlari bo'ladi, chunki sof sinxroniya bilangina chegaralanilsa, davrlarga ko'ra bo'lgan o'zgarish – taraqqiyot hisobga olinmay qolishi mumkin. Vaholanki, til taraqqiyotidagi ma'lum bir davr bundan oldingi taraqqiyotning qonuniy natijasidir: o'tgan hodisalarning izlari hozirgidan ham seziladi, hozirgi hodisa o'z tarixi bilangina to'liq anglashiladi. Lekin tildagi ma'lum davrning qonun-qoidalarini, ma'lum izchillikka ega bo'lgan qonuniyatlarni aniqlashda: adabiy til normalarini belgilashda, ta'limda, so'z yasalişida, biror hodisaning unumli - unumsizligini aniqlashda sinxroniyaga amal qilinadi. Bunday sharoitda diaxroniyaning amal qilishi normalar belgilash imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Masalan, *o'tloq*, *toshloq*, *qumloq*, *qishloq*, *ovloq* so'zlari struktura jihatidan o'xshash, ular o'rin ma'noli ot yasovchi *-loq* qo'shimchasi bilan yasalgan.

⁵⁹ A.Hojiyev. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalişining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi "Fan" nashriyoti. Toshkent – 2010.



Lekin hozirgi tilimizda ulardan dastlabki uch soʻz yasalma, qolgan ikkitasi esa hozirgi tilda yasama soʻz boʻla olmaydi, chunki bularda qismlarning semantik munosabati sezilmaydigan holatga kelgan.

Morfologik usulda soʻz yasalishi bugungi kunda ravish yasalishining eng sermahsul usulidir. Affiksatsiya yoʻli bilan ravish yasalishi tilimizda qadimdan mavjud boʻlib, ayniqsa, keyingi vaqtlarda eng unumli usulga aylangan. Ularni alohida-alohida koʻrib oʻtamiz:

-cha affiksi ot, sifat, olmosh, sifatdosh va ravishlarga qoʻshilib ravish yasaydi. Bu affiks yordamida otlardan ravish yasalishi birmuncha rivojlangan boʻlib, qolgan turkumlardan ravish yasalishi ancha chegaralangandir.

-cha yordami bilan yasalgan ravishlar ish-harakatning bajarilish usuli, darajasi, belgining oʻxshashligi kabi maʼnolarni bildiradi: *doʻstcha, ruscha, qiyomatcha, askarcha, avvalgicha, yangicha, oʻgʻrincha, yaxshilikcha, shuncha, sizcha, istagancha, yugurgancha, hozircha, koʻpiicha, keyincha* kabi: *Qutlugʻjon tez orada oʻzbekcha biyron-biyron gaplasha boshladi* (Oybek). *Agar siz buni chinga hisoblagan boʻlsangiz, men ham chinch soʻrayin* (A.Qodiriy). *Atroflicha muhokama qilsak, yangi takliflar chiqib qoladi* (R.Fayziy). *Haydar ota undan javob ololmasligiga koʻzi yetib, shoshgancha ichkariga kirdi* (A.Qahhor). *Balki qizlar aytgandek oʻlarcha oʻjar emasdir* (H.Ismoilov). *Xotinlarning baʼzilari qiziqqanlardan chachvonlarini qiya ochib, yashirincha moʻralashdi* (Oybek).

-cha affiksi orqali yasalgan *ayyorcha, yashirincha* soʻzlari tarz ravishidir. Lekin bular bir xil soʻz yasalishi maʼnosiga ega emas: *ayyorcha* “ayyorga xos tusda”; *yashirincha* “yashirin holda”. Bu affiks feʼldan boshqa deyarli barcha mustaqil soʻz turkumlarga oid leksemalardan ravish yasaydi. Lekin birinchidan, uning yordamida yasalgan ravishlar koʻp emas. Ikkinchidan, bu affiks yordamida ravish yasalishi maʼlum sistemani tashkil etmaydi. Masalan, u ot va sifatdan ravish yasaydi: *zarracha, ayyorcha* kabi. Lekin **-cha** affiksi ot yoki sifatning maʼlum bir leksik-semantik turidan umumiy soʻz yasaliş maʼnosiga ega boʻlgan, soʻz yasalişining maʼlum tipini hosil qiluvchi ravishlar yasamaydi. Bir turkumga oid leksemalardan yasalgan ravishlar ham turli leksik-semantik turga oid boʻladi: *yashirincha* (tarz ravishi), *butunicha* (miqdor-daraja ravishi). Hatto bir leksik-semantik turga oid ravishlar ham bir xil soʻz yasaliş maʼnosiga ega boʻlmaydi.

Ravish yasovchi **-cha** affiksi toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzak-negizga (harbiy-cha, biz-cha) qoʻshilib kela olganidek, egalik va kelishik affikslaridan keyin ham qoʻshila oladi (oʻz + i + cha, biz+ning + cha).

-larcha yordami bilan yasalgan ravishlar maʼno tomonidan **-cha** orqali yasalgan ravishlardan asosan farq qilmaydi, **-larcha** affiksi bilan yasalgan ravishda oʻxshatish maʼnosi bir oz kuchaygan boʻladi: *mardlarcha – mardcha*,



do'stlarcha – do'stcha.

-larcha affiksi odatda ot yoki otlashgan sifatlardan ravish yasaydi: *akalarcha, o'rtoqlarcha, o'g'illarcha, bolalarcha, otalarcha, asrlarcha, qadrdonlarcha, aybdorlarcha, beparvolarcha, vahshiylarcha* kabi: *Kimni koyidi, kimni otalarcha maqtadi* (Oybek). ...*kattalarcha chordona qurgan bola beparvogina tanishtirdi* (Oybek). *Bilamanki, Asal, sevgan yoring orsizlarcha seni tashlamas* (U.). *Oryol shahri uchun sen qilgan jangni yillarcha so'zlashar yoshu qariga* (H. Olimjon).

-chasiga affiksi bilan asosan ot va ba'zan sifatlardan ravish yasaladi. Bu ravishlar ma'no jihatdan harakat belgisining to'liq o'xshashligini bildiradi: *qahramonchasiga, harbiychasiga, mardchasiga, toshkentchasiga, ochiqchasiga, yozchasiga* kabi: *Katta masofalarni mo'g'ulchasiga yana ildam bosdi* (Oybek). *Ammo cholning yalinishlari, savdogarning o'jarchasiga oyoq tirab turishi yigitning g'azabini oshira boshladi* (Oybek). *Mardchasiga otni surgan uvalar ko'm-ko'k* (H.Olimjon).

Ravish yasovchi *-chasiga* va *-larcha* affikslari tarkib jihatdan murakkab bo'lib, har ikkisinin vujudga kelishida *-cha* ravish yasovchisi baza hisoblanadi. Tilimizning keyingi taraqqiyotida *-cha, -larcha, -chasiga* affikslari mustaqil yasovchiga aylangan.

-iga//siga affikslari yordami bilan yasalgan ravishlar ma'no jihatdan harakat belgisining qay tarzda bajarilishini, o'xshashligini bildiradi: *sidirg'asiga, uzunasiga, yalpisiga, baravariga, ko'tarasiga, qatorasiga, yoppasiga, birdaniga, tikkasiga, qiyasiga, ulgurjisiga, yolg'ondakasiga, rostakamiga, chinakamiga, surunkasiga, shunaqasiga, qanaqasiga* kabi: *Yalpisiga, bizning kolxoz normasini ikki marta ortiq bajardi* (Oybek). *Lekin u qatorasiga bir necha kun kelmadi* (P. Tursun). *Ikki ming gektar yerdagi g'o'za kvadrat-uyalab joylashtirildi, g'o'za uzunasiga va ko'ndalangiga kultivatsiya qilindi. Qanaqasiga «tegmayman» deysan?!* (H.).

-iga/siga affikslari odatda ot, sifat, olmosh, ravish va ravishdoshlarga qo'shib ravish hosil qiladi; unli bilan bitgan so'zlarga *-siga* (yalpi+siga), undosh bilan bitgan so'zlarga *-iga* (*birikay + iga*) qo'shiladi. Ba'zan esa undosh bilan bitgan so'zlarda o'zak bilan affiks orasida a tovushi orttiriladi: *uzun + a + siga, qator + a + siga*.

Ravish yasovchi *-iga/-siga* affikslari so'z turlovchilarining kombinatsiyasidan vujudga kelgan, tarkibi III shaxc egalik *-i, -si* hamda jo'nalish kelishigi *-ga* affikslaridan iboratdir. Biroq ravish yasovchi bu affikslar tarkibida hozir egalik ham, kelishik ham uqilmaydi.

-lab affiksi yordami bilan ot yoki ba'zida boshqa turkumdagi so'zlardan holat, payt va miqdor-daraja ma'nosini bildiradigan ravishlar hosil qilinadi: *ertalab, kechalab, haftalab, oylab, yillab, harflab, bo'g'inlab, bitta-bittalab,*



tonnalab, botmonlab, gektarlab, ko'plab kabi: Ta'limning birinchi kunlaridanoq o'quv-chilarni harflab emas, bo'g'inlab o'qishga o'rgatish kerak. Azonlab quyosh endigina oltin zarlarini sohib chiqib kelayotganda... (Oybek). Kuzda tonnalab olinadigan hosil- ning grammlab-grammlab undirish pallasi hozir (Oybek).

Ravish yasovchi -lab ikki qismdan (fe'l yasovchi -la va ravishdosh yasovchi -b dan) tashkil topgan murakkab affiksdir.

O'zbek tiliga boshqa tillardan o'tgan ravish yasovchilar deb ta'riflanayotgan -an, -ona kabilar ham o'zbek tilining so'z yasovchilari emas. Ularning hammasi tayyor holda arab (taxminan kabilar) va fors-tojik tillaridan (do'stona kabilar) o'zlashgan so'zlardir.⁶⁰

-lay//layin affiksi yordami bilan yasalgan ravishlar harakat belgisini bildiradi: *tiriklayin, butunlay, qoqlay, yoshlay kabi: Vaqt butunlay sezilmasdan o'tdi (Oybek).*

-n (-in, -un) affiksi yordami bilan harakatning qay tarzda bajarilishini, paytini bildiradigan ravish yasaladi: *ertan, kechin, oldin, kechqurun, yozin-qiishn, ochin-to'qin, ostin-ustun kabi: Ertan Usmat tomonga bizni boshlab borasan (F. Yo'ldosh). Bu yerlar chorva mollariga yozin-qishin o'tlov (Sh.R.)*

O'zbek tili akademik grammatikasida hozirgi o'zbek adabiy tilida ravish yasovchi sifatida ajratilmaydigan quyidagi qo'shimchalar ham ravish yasovchilar sirasida beriladi⁶¹:

-dek//day affikslari, ot, sifat, olmosh va ba'zan boshqa turkumdagi so'zlarga qo'shib ravish yasaydi. Bu ravishlar ma'no jihatdan taqlidni, o'xshatishni bildiradi: *askardek, yashinday, bur- gutdek, chirmovuqday, o'qdek, qushday, bekorhidek, farqsizdek, avvalgidek, kaftdagidek, har kungiday, har qachongiday; bunday, shunday, unday, sizdek, birdek, ko'rgandek, o'lgiday, bilmagandek, achingandek, yo'qday kabi: Boyagidek bir siqim tuproqni oldida, g'ijimladi, Zo'rga ham zo'rdek balo bordir (Maqol). Bu xususda qilgan e'tirozlarim balki zohiran ma'nosizdek ko'ringandir (Oybek). Tansiq eshikdan hovliga qadam qo'yishi bilanoq, cho'chiganday bir zum to'xtab qoldi (Oybek).*

So'zlashuv tilida -dek/-day affikslarining fonetik variantlari sifatida -doq, -dog', -dak, -daka, -daqa, -dayin shakllari ham uchraydi: *shundoq, mundog', sizdaka, shundaqa, qushdayin*. Bu affiks -aqa shaklida kelishi ham mumkin: *unaqa, bunaqa*.

⁶⁰ A.Hojiyev. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2007. 59-60-bet

⁶¹ Ўзбек тили грамматикаси. Т. I. – Тошкент: Фан. – 1975. – Б. 120.



-gacha affiksi yordami bilan ot, sifat, olmosh va ravishlardan payt-chegara ma'nosini bildirgan ravish yasaladi: *kechgacha, yaqin-gacha, ertadan-kechgacha, tushgacha, bungacha, anchagacha, haligacha, hozirgacha* kabi: *Ziyofat va keldi-ketdi alla-pallagacha davom etdi* (Oybek). *Kutilmaganda bu kishining ko'rinishi, ona tilida gaplashishi, uning hech kimga shu vaqtgacha kerak bo'lmagan salomatligi bilan qiziqishi Lutfullaning ko'nglini ko'tardi* (Mirmuhsin).

-simon affiksi mavhum ot yoki sifat-doshlarga qo'shilib, o'xshatish ma'nosini bildirgan ravishlar yasaydi: *hazilsimon, xafasimon, uyalgansimon, jilovlangansimon* kabi: *Koyimang, Yulduzxon – arazsimon gapirdi Tursunoy, – bir nafas ashula aytganimizga shunchami?* (R.Fayziy)

-namo affiksi yordami bilan taqlid, o'xshatish ma'nosidagi ravishlar yasaladi: *oliftanamo, hazilnamo, olimnamo, uyalgannamo* kabi: *Kumush uyalgannamo yuzini chetga burdi* (A.Qodiriy).

Shuningdek, ravish yasovchi **-cha** qo'shimchasi otlardagi kichraytirish-erkalash qo'shimchasi bo'lgan **-cha** bilan omonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, *yosh yigitcha – yigitcha ishladi*.

-cha ning bu ikki vazifasi urg'u bilan ham farqlanadi. Kichraytirish-erkalash ma'nosini bildiruvchi **-cha** qo'shimchasi urg'u oladi. *Yigitcha, qizcha, kuchukcha* kabi. Ravish yasovchi **-cha** qo'shimchasi esa urg'u olmaydi. Urg'u so'zning bu qo'shimchadan oldingi bo'g'iniga tushadi: *yigitcha, xotinchacha, erkakchacha* kabi.

-cha qo'shimchasini tushirib qoldirib, bu qo'shimchani olgan so'z oldidan kichkina so'zini qo'yish mumkin bo'lsa, **-cha** qo'shimchasi otning kichraytirish-erkalash shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha sanaladi. Masalan, *quticha – kichkina quti, uycha – kichkina uy* kabi.

-cha o'rniga **-dek, kabi, singari** ko'makchilarini qo'shish mumkin bo'lsa, u ravish yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. Masalan, *yigitcha – yigit* kabi (singari).

[ot+cha] qolipi o'zbek tilida harakatning qanday tarzda bajarilganini bildiradi. Bunday qolip yordamida hosil qilingan so'zlarda obrazlilik kuchliroq bo'ladi.

1. U o'zini **odamcha** tutishga harakat qilardi, ammo ichki iztirob yuziga chiqib turardi. (A.Qodiriy) *Odamcha* so'zi orqali insondek, insoniy tarzda ma'nolari kuchliroq ifodalangan.

2. U **bolacha** quvonch bilan atrofga boqdi, go'yo dunyo yangidan yaralgandek edi. (A.Qodiriy)

3. U **yigitcha** gapirib, hech kimdan cho'chimay fikrini aytdi. (A.Qodiriy)

Yuqorida ko'rib o'tilgan ravish leksemalar tarkibiga diqqat qilinsa, unda turli so'z yasash qolipi mavjudligi ma'lum bo'ladi. Shundan kelib chiqib



o'zbek tilida sodda ravish yasallishining quyidagi ustuvor qoliplarini ajratish mumkin:

[ot+cha] – *o'zbekcha, qiyomatcha, kitobcha, yangicha, avvalgicha, yangicha, o'g'rincha, atroflicha, onacha, yaxshilikcha, shuncha, o'zicha, sizcha, istagancha, yugurgancha, yashirinchacha, hozircha, ko'piicha, keyinchacha;*

[ot+chasiga] – *qahramonchasiga, erkakchasiga, harbiychasiga, mardchasiga, qishloqsachiga, toshkentchasiga, ochiqchasiga, yozchasiga, yolg'onchasiga;*

[ot+(s)iga] – *sidirg'asiga, uzunasiga, nomiga, yalpisiga, otiga, baravariga, ko'tarasiga, qatorasiga, yoppasiga, birdaniga, tikkasiga, qiyasiga, ulgurjisiga, yolg'ondakasiga, ko'ndalangiga, rostakamiga, chinakamiga, surunkasiga, shunaqasiga, qanaqasiga;*

[ot+larcha] – *akalarcha, mardlarcha, o'rtoqlarcha, yillarcha, o'g'illarcha, bolalarcha, otalarcha, asrlarcha, qadrdonlarcha, aybdorlarcha, orsizlarcha, begonalarcha, beparvolarcha, vahshiylarcha, do'stlarcha;*

[ot+lab] – *ertalab, kechalab, azonlab, saharlab, haftalab, oylab, yillab, harflab, bo'g'inlab, bitta-bitalab, tonnalab, botmonlab, gektarlab, ko'plab.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tili grammatikasi. I tom. O'zbekiston CCR "Fan" nashriyoti. Toshkent – 1975. 120-b.
2. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. -T., "Fan va texnologiya", 2009, 144-b.
3. A.Hojiyev. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasallishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi "Fan" nashriyoti. Toshkent – 2010.
4. A.Hojiyev. O'zbek tili so'z yasallishi tizimi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2007. 59-60-bet